



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Мехринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

Raxmatulla Hayitboyev – SamISI dotsenti,

Bobir Zoirovich To‘qsonov – Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi

BUXORO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyatining turizm sohasini so‘nggi yillarda rivojlantirishdagi yutuqlarining tahlili keltirilib, istiqbolda viloyatda turizmni mavjud resurslar, imkoniyatlardan foydalanib yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, barqarorlik, standart, brend, ekspert, hudud, sammit, grand, strategik sektor, cho‘llar, festival.

Kirish. O‘zbekistonda milliy turizmni barqaror rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni, tadqiqotlarni amalga oshirish talab qilinmoqda. Chunki xalqaro turizm bozoridagi yangi turistik ehtiyojlarining talablari turizmning yangi texnologiyalarini, ustivor tajribalarini, yangi turlarini, yo‘nalishlarini tashkil qilish va rivojlantirishni, yangi turistik mahsulotlarni izlashni, yaratishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, istiqbolda turizm sohasi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida «...turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni majmuali ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo‘lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish...» [1]belgilandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda yangi davrni, istiqbolli islohatlarning sharoitlarini yaratdi [2].Prezident farmonida: -“Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an‘anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini–ziyosat qilish, ekologik, ma‘rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish, ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” belgilangan.

Mamlakatimizda turizmning sohalarini va yangi turlarini tashkil qilish va rivojlantirish zamonamizning turizmida ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirishdagi muhim omillarga, jarayonlarga aylanib bormoqda. Turizmdagi xalqaro ekspertlarning xulosalari bo‘yicha davlatlarda turizmning taraqqiyoti darajalari davlatda turizmning ko‘plab turlarini rivojlantirishga bog‘liq.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 35-maqsadida Buxoro viloyati bo‘yicha quyidagi dolzarb topshiriqlar qo‘yilgan[1]:

-Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni amalga oshirish.

-2022-2026-yillarda xorijiy va mahalliy turistlar sonini 5 mln. nafarga, eksport hajmini 600 mln. AQSh dollariga yetkazish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro viloyatining asosiy hududlari quruq iqlimli cho‘l mintaqalaridan tashkil topganligi uchun turizm sohasining bu viloyatdagi resurslarning barchasidan turizmga foydalanish nuqtayi nazaridan yetarlicha o‘rganilmagan. Hozirga kelib, Buxoro viloyatida ekoturizmni rivojlantirish [3.4.7.],ziyosat turizmini rivojlantirish viloyatdagi tabiat resurslaridan turizmga foydalanish, viloyatda turizmning turlarini rivojlantirish masalalari O‘zbekistonning cho‘llarida turizmni tashkil qilish va rivojlantirishning istiqbolli va strategik yo‘nalishlariga kiritilgan[5.6.].

Tadqiqot metodologiyasi. Analitik tahlil, Buxoro viloyatidagi turizm resurslaridan turizmga foydalanish tadqiqotlari, statistika, ekspedisiya, kuzatuv, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Buxoro viloyati respublikamizning milliy turizmining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Quyida viloyatda turizm sohasining jadal rivojlanayotganligini tasdiqlovchi ko‘rsatkichlarini keltiramiz:

I.Turizmda mehmonxonalar, turizmda yangi ish o‘rinlari, turizmda yangi infratuzilmalar:

-so‘ngi uch yilda 235 ta joylashtirish vositasi, jumladan, 60 ta mehmonxona (1 316 ta xona, 2 798 ta o‘rin), 51 ta xostel (435 ta xona, 1 638 ta o‘rin), 123 ta oilaviy mehmon uyi 9511 ta xona, 1 173 ta o‘rin, 1 ta motel (9 ta xona, 18 ta o‘rin) ning faoliyati ishga tushirilishi natijasida ularning soni 607 taga, o‘rinlar soni 15 341 taga yetdi. Buxor shaharida xalqaro standartlarga javob beruvchi 2 ta 4 yulduzli, va 4 ta 3 yulduzli mehmonxonalar ishga tushirildi. Viloyatga Wyndham, Mercure, Sahid kabi xalqaro brendlar kirib keldi.

-viloyatda 71 ta yangi turoperatorlar\turagentlar ish boshlaganligi natijasida ularning soni 2022-yildagi 115 tadan 2024-yilda 186 taga yetib, o‘rish ko‘rsatkichlari 161,7% tashkil qildi.

-2024-yilda viloyatning turizmi sohasida 18,1 ming ish o‘rinlari yaratildi. Hozirda viloyatning turizmi sohasida 73,3 ming kishi ishlamoqda, bu raqam 2017-yilda 3,0 mingni tashkil etgandi;

-yozgi mavsumda turistlarga salqin iqlim sharoitlarini yaratish uchun Wyndham, Mercure, Sahid Zarafchon kabi yirik mehmonxonalarda suv havzalari ishga tushirildi. Romitan tumanida “Bukhara Oasis va To‘dako‘l qirg‘og‘ida «Silk Road» turistik plyaj zonasi turistlarni qabul qilmoqda;

-viloyatda turizm sohasida namoyish qilinadigan obyektlar soni 300 tadan oshdi.

II.Buxoro turizmi targ‘iboti bo‘yicha quyidagi turizmning madaniy tadbirlari o‘tkazildi:

- 2024-yilning 15- mart va 1-avgust kunlari Buxoro shaharida “Ichki turizm” ko‘rgazmasi va “Bukara Destination Forumi» tashkil qilindi. Bu tadbirlarda Misr, Eron, Iordaniya, Livan, Jazoir davlatlarining vakillari qatnashdi;
- 2024-yilning 3-5 may kunlari Buxoro shaharida «II - Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik festivali» o‘tkazildi.Festivalga jami 100 ming kishi, shundan 18 ming xorijiy turistlar, 385 nafar mahalliy hunarmanlar qatnashdi;
- Buxorolik turoperatorlar va turizm mutaxassislari Turkiya, Koreya, Eron, Malayziya, Indoneziya, Singapur, Xitoy, Ispaniya, Fransiya, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston davlatlarida “Buxoroning turizmi” salohiyatini, axborot-reklamalarini targ‘ib qilishdi;
- Xalqaro ziyorat turizmi bo‘yicha Singapurda 2024-yilning 30-may kuni “Crescent Rating» tashkiloti tashkil qilgan “Halal in Travel-Global Summit 2024” umumjahon sammitida 27 ta davlatning 80 dan ortiq vakillari ishtirokida “Halal in Travel-Global Summit 2024” mukofoti Buxoroga topshirildi;
- 2024-yil 29-noyabr kuni “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi” tadbirida Vobkent tumanidagi “Shirin” qishlog‘iga “Turizm qishlog‘i”, G‘ijduvon tumanidagi “Qo‘rg‘on mahallasi”ga “Turizm mahallasi” maqomi berildi;
- “Turizm va madaniy meros” texnikumining 7 nafar talabasi Fransiyaning Ruan Normandiya universitetiga grant asosida qabul qilindi.

III. Buxoro turizmining xalqaro darajalardagi e‘tirofi:

- Poyi Kalon majmuasi «ShHT ning 8-mo‘jizasi» ro‘yxatiga kiritildi;
- Buxoroga «Butunjahon hunarmandlar shahari» maqomi berildi;
- «Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik» yo‘nalishi bo‘yicha «Buxoro deklarasiyasi» qabul qilindi;
- Qohira (Misr Arab respublikasi) va Bamako (Mali) shaharlari qatorida Buxoro shahariga «Islom madaniyati poytaxti» sifatida tasdiqlandi.

IV.Buxoro viloyati turizmini rivojlantirish Boshqarmasining xorijiy mamlakatlari-dagi faoliyati natijalari bo‘yicha axborot manbaalarini o‘rganishdan ma‘lum bo‘ldiki, xalqaro ziyorat turizmi yo‘nalishida Buxoro viloyati va Buxoro shaharidagi ziyoratgohlarga kelish istagi bo‘lgan xalqaro ziyoratchilarning jami soni 90 mln. xalqaro turistni tashkil qilmoqda(1-jadval).

Keltirilgan ma‘lumotlardan ma‘lum bo‘ladiki, Buxoroliklar O‘zbekiston Respublikamizning milliy turizmi rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqda. Buxoroliklar viloyatning ichki va xalqaro turizmini aniq va mukammal strategik rejalar asosida

1-jadval

Buxoro viloyati va Buxoro shaharidagi ziyoratgohlarga kelish istagini bildirgan xorijlik xalqaro ziyoratchilar¹

T/R	Davlatlar	Ziyoratchilar
1.	Indoneziya	20,0 mln. atrofida (aholisi -276 mln. kishi)
2.	Malayziya	7,0 mln. atrofida (aholisi -35,0 mln. kishi)
3.	Singapur	1,2 mln. atrofida (aholisi -6,0 mln. kishi)
4.	Turkiya	10,0 mln. atrofida (aholisi -85,0 mln. kishi)
5.	Eron	5,0 mln. atrofida (aholisi -80,0 mln. kishi)
6.	Bangladesh	8,0 mln. atrofida (aholisi 171,0 mln, kishi musulmonlar-150,0 mln.)
7.	Hindiston	20,0 mln. atrofida (aholisi-1,5 mlrd., kishi musulmonlar-201,0 mln. kishi)
8.	Pokiston	7,0 mln. atrofida (aholisi-236,0 mln. kishi)
9.	Rossiya(Tatariston, Boshqirdiston, Checheniston, Dog‘iston va boshq...	4,0 mln. atrofida (aholisi-144,0 mln. kishi)
10.	MDH mamlakatlari	5,0 mln. atrofida (aholisi-60,0 mln. kishi)
	Jami	90,0 mln. xalqaro ziyoratchilar

rivojlantirmoqdalar. Bu holatni ichki va xalqaro turistlarni qabul qilishi bo‘yicha viloyatning so‘ngi 10 yillik ma‘lumotlarini keltirish yetarli deb hisoblaymiz.

Jadval ma‘lumotlarini tahlil qilganimizda, dastlabki 2016-yildan mahalliy va xorijiy turistlarning o‘qimi o‘sib borish xususiyatini ko‘rsatayapti. Bu o‘sish pandemiya yillarida deyarli eng kichik ko‘rsatkichlarga pasaygan. Ichki va xalqaro turistik oqim pandemiya yillaridan keyin kuchayib, to so‘ngi yillargacha davom etib kelmoqda. So‘ngi natijalar bo‘yicha mahalliy turizmdagi o‘sish-135,42% (4010,3 mahalliy turistlar), xalqaro turistlarning tashrifi-1745,2 turistlar, o‘sish-315,81%ni tashkil qilgan(2-jadval).

2-jadval

Buxoro viloyatida 2015-2024-yillarda turistlarga ko‘rsatigan xizmatlarning o‘sishi sur‘atlari

T/R	Yil lar	Faoliyat ko‘rsatkichlari					
		Xorijiy turistlar soni, ming kishi	2022-yildan o‘shish, %	Mahalliy sayyohlar soni, ming kishi	2022-yildan o‘shish, %	Tushum, mlrd. so‘m	2022-yildan o‘shish, %
1	2015	88,9	-	602,5	-	185,3	-
2	2016	101,3	-	726,4	-	264,1	-
3	2017	169,6	-	1 100,3	-	399,0	-
4	2018	301,5	-	2 210,5	-	903,7	-
5	2019	603,0	-	3 037,8	-	1 427,2	-
6	2020	13,3	-	236,6	-	82,5	-
7	2021	48,9	-	2 216,4	-	524,4	-
8	2022	552,6	100,0	2 961,2	100,0	2 052,8	100,0
9	2023	1 387,8	251,1	3 490,0	117,85	4 697,3	228,82
10	2024	1 745,2	315,81	4 010,3	135,42	6 037,7	294,12

Viloyatda ichki va xalqaro turistlarga zamonaviy xizmatlarni ko‘rsatishdan olingan tushumlar miqdori 2022-yilda-2 052,8 mlrd. so‘m bo‘lgan. Bu miqdor 2023-yilda-4 697,3 mlrd. so‘mni (o‘shish-228,82 %), 2024-yilda 6 037,7 mlrd.so‘mni tashkil qilgan (o‘shish-294,12%). Viloyatda turizmni rivojlantirish yo‘nalishida qayd qilingan xizmatlarni tashkil qilish natijasida

¹ Buxoro viloyati turizmni rivojlantirish Boshqarmasining ma‘lumotlari

2024-yilning oʻzida 18,1 ming yangi ish oʻrinlari yaratilgan.

Qayd qilingan natijalar boʻyicha xulosa qilish mumkinki, Buxoroliklar mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilishda aniq strategik rejalar boʻyicha faoliyat yuritishmoqda. Mavzuda keltirilgan fikrlar va mulohazalar boʻyicha quyidagi xulosa va tavsiyalar kelib chiqdi.

Xulosa va takliflar:

1.Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish jarayoni sohadagi koʻplab yoʻnalishlar boʻyicha majmualar reja asosida olib borilmoqda.Viloyatda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishning infratuzilmalarini yaratish, turistik firmalar va tashkilotlarning sonini koʻpaytirish, ichki va xalqaro turizm (xorijiy davlatlarda) Buxoro turizmi milliy brendini targʻib qilish tobora kuchaytirilmoqda. Buxoro turizmining yutuqlari ichki va xalqaro miqyoslarda koʻrgazmalar va festivallarni tashkil qilish orqali namoyish qilinayapti, Buxoroliklar xalqaro turizm tashkilotlarining eʼtiroflari va maqomlarini olishmoqda.

2.Buxoro viloyatida ichki va xalqaro turizmni yanada jadal rivojlantirishda hozirgacha turizm foydalanilmayotgan resurslardan, imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadli va kutilgan natijalarni beradi.

3.Buxoro viloyati hududlaridagi Qizilqum davlat tabiat qoʻriqxonasi va yangi tashkil qilingan Qizilqum milliy parkida ekoturizm va rekreasiyani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

4.Buxoro viloyatining hududlarida joylashgan 9 ta qadimiy sardobalardan ichki va xalqaro turizm foydalanish dasturlarini ishlab chiqish.

5.Buxoro viloyatida milliy gastronomiya turizmini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda imzolangan “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni. Toshkent sh.,2022 -yil 28- yanvar, PF-60-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Oʻzbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861 sonli Farmoni.
3. Islomova R. A., Ekologik turizmni rivojlantirishning muammolari. Monografiya, Toshkent, “Iqtisodiyot”, 2014.-131 b.
4. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., va boshq... Turizm asoslari, Darslik, Toshkent,2016.-331 b.
5. Hayitboyev R.Oʻzbekistonning choʻllarida turizmni tashkil qilish va rivojlantirishning strategik yoʻnalishlari. «STAR-SEL» MCHL. Nashriyot-matbaa boʻlimi. Samarqand, 2022.-175 b.,ISBN: 998-9943-9077-0-6
6. Hayitboyev R.Oʻzbekistonning choʻllarida turizmni rivojlantirish istiqbollari, Monografiya, Samarqand, 2018.-143 b.
7. Hayitboyev R.Ekologik turizm,Oʻquv qoʻllanma, «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», Toshkent,2021.-375 b. ISBN: 978-9943-7799-3-8

Р.Хайитбоев, Б.Туксонов Перспективы развития туризма в Бухарской области	R.Khaitboev, B.Tuksonov Prospects for the development of tourism in the Bukhara region
Аннотация. В статье анализируются достижения Бухарской области в развитии туристической отрасли за последние годы и даются рекомендации по дальнейшему развитию туризма в регионе с использованием имеющихся ресурсов и возможностей в будущем. Ключевые слова: диверсификация, устойчивость, стандарт, бренд, эксперт, регион, саммит, гранд, стратегический сектор, пустыни, фестиваль.	Abstract. The article analyzes the achievements of the Bukhara region in the development of the tourism sector in recent years and provides recommendations for the further development of tourism in the region using available resources and opportunities in the future. Keywords: diversification, sustainability, standard, brand, expert, region, summit, grand, strategic sector, deserts, festival.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.